

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.M.Karimov</b>	
A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik- stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash tamoyillari .....	125
<b>A.A.Shernazarov, X.J.Jamolova</b>	
“Boburnoma”dagi forscha baytlarning mualliflari .....	129
<b>M.B.Rajabova</b>	
Alisher Navoiy ijodida marsiya va lavhalar .....	133
<b>G.S.Qurbonova</b>	
Nurali Qobul ijodida ayol ruhiyati tasviri .....	140
<b>M.K.Mirzoyev</b>	
Farzona Xo‘jandiy she‘rlarida motam marosimining badiiy ifodasi .....	145
<b>M.A.Jo‘rayeva</b>	
Cho‘lponning “Vayronalar orasida” asari janr xususiyatlari .....	149
<b>L.A.Masharipova</b>	
O‘zbekimning go‘zal urf-odatları .....	154

---

#### TILSHUNOSLIK

<b>M.Y.Mamajonov, Z.A.Mirzamatova</b>	
Diplomatik munosabatlar ramz va turlarining tasniflari .....	158
<b>Z.Sh.Pazilova</b>	
O‘zbek va nemis tillarida to‘y bilan bog‘liq leksik birliklar .....	163
<b>M.Y.Xusaynova</b>	
O‘zbek va ingliz tillarida paxta leksemasining lingvomadaniyatda aks etishi .....	168
<b>M.M.Mamajanova</b>	
Ingliz tili grammatikasining retseptiv ko‘nikmalarini o‘rgatish .....	172
<b>N.A.Xoshimova, M.R.Nematjonova</b>	
Tarjimada realiyalar masalasi .....	176
<b>X.M.Maripova</b>	
Frazeologik birliklarning lingvokulturologiya bilan bog‘liqligi .....	179
<b>N.A.Mansurova</b>	
Tilshunoslikda terminologiya masalalari .....	183
<b>M.R.Komilova</b>	
O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma leksemalarning o‘rganilishi tarixi.....	187
<b>J.X.Djamolov</b>	
O‘zbek tilining davlat tili maqomiga erishish jarayoni .....	192
<b>Sh.T.Yusupova</b>	
Lingvistik interferensiya hodisasining mohiyati xususida .....	197
<b>M.O.Batirxanova</b>	
Somatik frazeologik birliklar tadqiqida “Madaniy kodlar” .....	201
<b>G.X.Saydullayeva, O.P.Uralova</b>	
“TikTok” ijtimoiy tarmoq izohlarida xorijiy so‘zlarning izohlarda ishlatilishi.....	203
<b>M.M.Nurmatova, M.O.Oripova</b>	
Nutqiy etiketni shakllantirishda madaniyat va ijtimoiy omillarning o‘rni.....	206

---

#### MATEMATIKA

<b>A.K.Yusupova, B.Qurbonov</b>	
Ba‘zi biologik jarayonlarni differensial tenglamalar yordamida o‘rganish .....	209
<b>O‘.U.Ismailov</b>	
Atoqli otlar nazariyasi va semantikasi.....	214

---

#### FIZIKA– TEXNIKA

<b>E.X.Bozorov, M.A.Abdullayeva</b>	
Oliy ta‘lim muassasalarida “radiatsiya xavfsizligi” fanini o‘qitishda interfaol metoddan foydalanish .....	218

## ALISHER NAVOIY IJODIDA MARSIIYA VA LAVHALAR

## «МАРСИЯ» И «НАВХА» В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИЙ

## MOURNING AND WEEP IN THE CREATION OF ALISHER NAVOIY

Rajabova Ma'rifat Baqoyevna<sup>1</sup><sup>1</sup>Rajabova Ma'rifat Baqoyevna

–Buxoro davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori

**Annotatsiya**

Maqolada Alisher Navoiyning ustoz Abdurahmon Jomiy vafotiga bag'ishlangan marsiyalari tahlil qilinadi. Ulug' shoirning Abdurahmon Jomiy shaxsi, uning fazilatlari to'g'risida qarashlari tahlillar orqali yoritib beriladi. Shu bilan birga, shoirning falsafiy qarashlari, pand-nasihatlarining marsiyalar tarkibiga singdirilganligi sharhlar tahlilida ko'rsatib berilgan. Tahlil jarayonida har ikkala shaxs o'rtasidagi do'stlik, insoniy munosabat va fazilatlarga urg'u beriladi. Marsiyada motam marosimiga xos xususiyatlarning badiiy ifodasi, motam marosimiga oid tasvirlarni berishda so'z qo'llash mahoratiga doir mulohazalar o'rtaga tashlanadi.

**Аннотация**

В статье анализируются биографии Алишера Навои, посвященные смерти его наставника Абдурахмана Джамии. В частности, анализируются взгляды великого поэта на личность Абдурахмана Джамии, его качества. В то же время философские воззрения, увещевания поэта, вложенные в содержание трагедий, показаны в обзорном анализе. В процессе анализа акцент делается на дружбе, человеческих отношениях и качествах между двумя личностями. В "Марсии" изложены соображения о словоупотреблении поэта в художественном выражении особенностей траурного обряда.

**Abstract**

The article analyzes the lamentations of Alisher Navoi dedicated to the death of his teacher Abdurahmon Jami. At the same time, the analysis of the commentaries shows that the poet's philosophical views and teachings are embedded in the verses. The analysis emphasizes the friendship, human relationship and qualities between the two individuals. Comments are made on the poet's skill in the use of words in the artistic expression of the peculiarities of the mourning ceremony in Marsiya.

**Kalit so'zlar:** lirik janri, marsiya, motam, pand-nasihad, do'stlik, insoniy munosabat.

**Ключевые слова:** лирический жанр, марсия, траур, увещевание, дружба, гуманное отношение.

**Key words:** lyric genre, mourning, exhortation, friendship, human relationship.

**KIRISH.** Folklor qadimiy so'z san'ati sifatida o'ziga xos g'oyaviyligi va badiiyati bilan ulug' o'zbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiy e'tiborini ham tortdi. Shoir folklorning afsona, rivoyat, ertak, naql, doston, qo'shiq, maqol, topishmoq, askiya kabi qator janrlarining kompozitsion qurilishi, syujet motivlari, an'anaviy obrazlari, ifoda usuli va tasviriy vositalaridan ijodiy foydalanib, xalq tili va diliga yaqin asarlarini mahorat bilan yaratdi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.**

O'zbek adabiyotshunosligida folklor va yozma adabiyot munosabati, o'zaro ta'siri masalasini buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy ijodi misolida o'rganish alohida yo'nalish sifatida ko'pdan rivojlanib kelmoqda. Bunda A.Fitrat, A.Sa'diy, O.Sharafuddinov, M.Shayxzoda, M.Afzalov, N.Mallayev kabi olimlarning izlanishlari boshqa tadqiqotlar uchun ilmiy metodologik asos vazifasini o'tab keldi. Ular Alisher Navoiy ijodida folklor muhim manbalardan biri ekanini e'tirof etadilar.

Ta'kidlash kerakki, Alisher Navoiyning xalq dostonlari, motam marosimi qo'shiqlari, topishmoq, olqishlar asosida yaratgan doston, marsiya, marsiya-g'azal, marsiya-tarkibband, lug'z (chiston), muammo, ruboiy-olqish, ta'rix-olqish singari janrlar bilan o'zbek mumtoz adabiyotining janrlar tarkibini boyitdi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

O'zbek motam marosimi jarayonlari bilan bog'liq tarzda ijro qilinadigan yig'i va yo'qlov qo'shiqlariga xos shakl, uslub, ohangda Alisher Navoiy ijodida yaratilgan navhalarni, g'azal-marsiya hamda tarkibband- marsiyalarni uchratish mumkin. Jumladan, shoirning ustoz, yaqin maslahatgo'yi

Abdurahmon Jomiy, do'stlari Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammad vafotiga atab yozgan she'rlarini yozma adabiyotdagi marsiyaning mumtoz namunalari deyish mumkin.

Alisher Navoiyning Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan marsiyasi "Marsiyai hazrati Maxdum" ("Maxdum hazratlari haqida marsiya") deb nomlangan bo'lib, tarkibband shaklida, fors tilida bitilgan. Hajmi har biri o'n baytlik yetti banddan tashkil topgan. Unda shoir ustoz Abdurahmon Jomiyning o'limi munosabati bilan hayot va o'lim, boqiylik va foniylik, tiriklikning mazmun-mohiyati, poklik, ezgulik haqidagi falsafiy fikrlarini bayon etgan. Hayotning shafqatsizligini, umr deganlari ko'z yumib-ochguncha o'tib ketishini yodga solgan. Lekin unda xalq marsiyalari hamda Navoiygacha yaratilgan yozma marsiyalardagi kabi marhumning o'limi qanday sodir bo'lgani, uning sabablari, marhum tirikligida amalga oshirgan ishlar tafsiloti keltirilmagan. Shoir uchun Jomiyning o'z tirikligida ezgu amallar bilan umrini mazmunli o'tkazgani va shu bilan foniy dunyoda boqiylikka erishganligi, nomining abadiy saqlanib qolayotganligi muhimdir. Shuning uchun shoir yozadi:

Bir olamni boshqa bir olamga olib borish,  
Bundayin ogoh yuk tashuvchilardan boshqaga ravo emas.<sup>4</sup>

Bu she'r shakliga ko'ra mumtoz adabiyotning yirik hajmli lirik janrlaridan biri hisoblangan tarkibbandlarga xos murakkab kompozitsion qurilishda, chegaralanmagan hajm kengligida, mazmuniga ko'ra esa marsiyalar kabi yaqin kishisidan ayrilgan ijodkorning mungli kechinmalari, qalb iztiroblari, yurak tug'yonlari tasviriga asoslanib yaratilgan. Natijada unda tarkibband va marsiya kabi aslida alohida-alohida janrlarning xususiyatlari birlashishidan tarkibband-marsiya shakli paydo bo'lgan. Shu shaklda shoir tuproqqa topshirilgan Jomiy yodga olar ekan, bundan o'rtanganini sir saqlay olmaydi. "Seni tuproq ko'ksiga xazinadek joyladilar... Senga jannat – gulxanu to'bi bir xashakdek tuyuladi... Karam quyoshi iloh ko'lankasi tobuting ustiga soya tashladi. Agar muyassar bo'lsa, u ham tobutingni yelkaga olib, kuygan men kabi mozorgacha hamroh bo'lar edi", – deb yozadi.<sup>5</sup>

Aytilishicha, Alisher Navoiy har doim Jomiy "Nuran maxdum" deya e'zozlagan. Shuning uchun uning o'limi munosabati bilan "Mash'al o'chib, qiyomat kunigacha kecha qorong'i qolgani"ni ta'kidlaydi. "Jahon poklarining boshlig'i eding, shuning uchun ham pok Tangri pok yaratdi seni, yana pok olib ketdi seni" deya, Hazrat Jomiyga nasib etgan nurafshon umrni madh etadi.

Xalq yig'i-yo'qlovlaridagi kabi Navoiy ham marhum Jomiy ruhi pokiga olqish aytib, uning abadiy uyqusiga xotirjamlik tilaydi. Ustoz ruhidan madad so'raydi:

Izzat va noz haramida to' abad jilva qilgaysan.  
Nurlarga to'la ruhingdan madad yetkazgaysan....  
"Qiyomatgacha surat bilan ma'no shoh bo'lgay, Omin".<sup>6</sup>

Alisher Navoiy "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida Jomiy o'limini ochiq-oydin aytmay, uni evfemizlashtirib, "Chun pokiza ruhlarining qudsiy oshyon toiri badan qafasidin ravzai firdavs sori parvoz tuzdi va muborak jismlarining oliy makon paykari dor ul-fano mahbasidin dorul-baqo anjumanig'a mayl ko'rguzdi" deya ko'chma ma'nolarda ifoda etadi.<sup>7</sup> Bunda shoir xalqning jon va ruh bilan bog'liq qadimiy animistik tasavvur -tushunchalari asosida inson ruhini qush, badanni esa qafas hisoblash, badan qafasini tark etgan jon qushi pok bo'lsa, ravzai firdavsga (jannatga), nopok bo'lsa, do'zaxga uchib borishini, ya'ni dorul fanodan dorul baqoga ketishini tasvirlamoqda.

Turmushda, odatda, yaqin kishisidan judo bo'lganlar ta'ziya ochib, aza tutadilar. Navoiy ham ustoz Jomiy vafoti sabab "sohib motam", "nomurod so'gvor", "sohibazo" va "noshod ta'ziyat shior" bo'lganini ta'kidlaydi. "Chun bu motamda majruh ko'ngul ozori va mahzun xotir iztirobu iztirori haddan oshganini, bu ranj taskini va bu oshub itmiynoni uchun ul sipehri izzu iqbol bila bu xokiyvashi furumoya va ul mehri avji kamol bila bu zarrai kamsarmoya orasida o'tgan holotdin bir necha varaq nigorish qilishni va maqolotdan bir necha muqaddima guzorish berishni xayol qilgani"ni aytadi.<sup>8</sup>

<sup>4</sup> Навоий А. Хамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. XX жилдлик. XV жилд. – Т.: Фан, 1999. – Б.214.

Изоҳ:" Хамсат ул-мутаҳаййирин" асаридан келтирилган форсий матнлар таржимаси С. Ғаниева томонидан амалга оширилган.

<sup>5</sup> Навоий А. Хамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. XX жилдлик. XV жилд. – Т.: Фан, 1999. – Б.214.

<sup>6</sup> Навоий А. Хамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. XX жилдлик. XV жилд. – Т.: Фан, 1999. – Б.215.

<sup>7</sup> Навоий А. Хамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. XX жилдлик. XV жилд. – Т.: Фан, 1999. – Б.8.

<sup>8</sup> Навоий А. Хамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. XX жилдлик. XV жилд. – Т.: Фан, 1999. – Б.8.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

D.O'rayevaning o'zbek motam marosimi folklori genezisi, janriy tarkibi va badiiyati o'rganilgan tadqiqotida islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida payshanba, juma, ro'za va hayit kunlari jannat eshiklari ochiq bo'ladi va bu kunlarda jon taslim qilgan kishilar hech bir qiyinchiliksiz, so'roq-savolsiz jannatga kirib boradi deb qaralishi sababli shu kunlarda yuz bergan o'lim xosiyatli sanalishi, hatto o'z o'limini tan oluvchi har bir musulmon juma kuni o'lim topishni katta baxt deb bilishi, bu tushunchalar xalq yig'i va yo'qlovlarida ham o'z ifodasini topganligi misollar bilan dalillangan.<sup>9</sup> Jumladan, Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida ham juma kuni yuz bergan o'lim haqida alohida ishora berilgani kuzatiladi: "Ul hazratning favtlari voqeasi sharhig'a shuru' qilali: alarning valodatlari tarixi va hayotlarining zamonining tarixi yuqori mazkur bo'lubtur. Ammo fano doridin baqo gulzorig'a rihlatlari jum'a kuni muharram oyining o'n yettisida tarix sekkiz yuz to'qson sekkizida voqe' bo'ldi".<sup>10</sup>

Shoir "o'ldi" so'zini deyarli ishlatmagan. Bu so'z o'rinda favt, ko'z yummoq, baqoga rixlat qilmoq, ruh qushi uchmoq, vahdat xilvatxonasig'a nuzul qilmoq, malail-a'log'a azimat qilmoq singari so'z va iboralarni qo'llagan: "Alar kasrat anjumanidin ko'z yumub, vahdat xilvatxonasig'a nuzul qildilar. Alarning mutahhar ruhi chun malail-a'log'a azimat qildi va ashobning hayoti qushi hamul toyiri qudsiydin irashti, fazai akbar malai a'log'a yetishti, chun ul pok muhib o'zin pok mahbus visolig'a soldi - olam jonsiz badandek xoli qoldi".<sup>11</sup>

Shuningdek, "Xamsat ul-mutahayyirin" asarida keltirilgan ma'lumotlar asosida Navoiy davrida motam marosimlarining tashkil qilinish tartibi haqida ham bilib olish mumkin. Masalan, shoir o'limning mudhish xabari shaharga tarqalgach, akobirmi yo oddiy fuqaromi atrofdan yig'ilib kelishi, barcha so'gvorlik (motam) libosida bo'lishi, hoy-hoy yig'lab va talx-talx sho'robalar to'kishi, sohib azoni shafqat yuzasidan quchib, bir muddat uning boshini qo'ynida asrab yig'lab, soyir ashobg'a ko'ngul berib, holiga dilso'zluqlar aytishini bildiradi.<sup>12</sup> Shu o'rinda Jomiyning o'g'li Mavlono Ziyovuddin Yusufga va Navoiyga sultonning kelib, sohib azo sifatida ko'ngil so'ragani ham tasvirlangan. Yana "hazaroti oliyot mahdi ul yo Bikabegimning so'gvorlig' va motamzadalig' tavrada kelib, azo so'rar qoidasin bajo kelturgani" ham tasvir etilgan. Atrofdagi viloyatdan ham ul zotning azosi uchun kelishgani ta'kidlagan. Shu o'rinda shoir yozadi: "Filhaqiqat bu faqir sohib azo erdi, hamul dastur bila faqirni o'q sohib azo (asosiy azadorlardan biri – M.R.) tutub, so'rmog' rasmin mar'iy tuttilar. Hattokim, Sulton-Badiuzzamon mirzo Mozandaron mulkidin kishi yiborib, alar azosi uchun ba'zig'a liboslar iltifot qilib erdilar... Bir yilg'acha olam ahlig'a umuman va Xurosonu Hirot ahlig'a xususan, motam erdi. Yil bo'lg'ondin so'ngra Hazrati Sultoni sohibqiron alarning yil oshin base e'zoz va ehtirom bila podshohona berib, muxlislaridin ba'zi ul hazratning mutahhar marqadi boshida oliy imorat solib, huffozu imom va muqriyu xuddom tayin qildi. Va nazm ahli ko'p ta'rixlar aytib o'qudilar. Ul jumladin huruf roqimi bu marsiya bila ta'rixni aytib, yil oshi tortarda sultoni sohibqiron oliy majlislarida o'tkardi va hukm bo'ldikim, Mavlono Husayn Voiz minbar ustida o'qudi".<sup>13</sup>

Bu ma'lumotlar vositasida Navoiy davrida sohib azalik, aza so'rash odobi, aza bildiruvchilar tomonidan azadorlarga hatto liboslar tuhfa qilish, marhum xotirasi uchun bir yilgacha motam saqlash, so'ngra yil marosimini tashkil qilib, "yil oshi" udumini bajarish, ya'ni elga osh tortib, marhumni tantanali xotirlash, ruhiga duolar qilish udumlari bo'lganini bilib olish mumkin. Bu udumlarning barchasi hozirgacha o'zbeklar orasida saqlanib kelmoqda. Faqatgina azadorlarga yil oshidan so'ng liboslar tuhfa qilish udumi hozirgi paytda Farg'ona vodiysi hamda Surxondaryo hududi aholisi orasidagina saqlanib qolgan.

Demak, Alisher Navoiy ustoz Abdurahmon Jomiyning dafn marosimi mana shunday tantanali o'tkazilgani orqali uning buyuk va qadrli inson bo'lganini ma'lum qiladi. Hatto Sulton Husaynning shaxsan o'zi bu tadbirlarda faol qatnashganini, marhum shoir qabri ustiga maqbara bunyod ettirganini va unga huffozu imom va muqriyu xuddom tayin qilganini, nazm ahli esa Jomiyga bag'ishlab ko'p ta'rixlar bitganlarini qayd etib o'tadi.

<sup>9</sup> Ўраева Д.С. Ўзбек мотам маросими генезиси, жанрий таркиби ва бадиияти: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 2005. –Б.252-253; Бўзлардан учган ғазал-ай. Ўзбек халқ йиғи ва йўқловлари. Тўплаб, нашрга тайёрловчилар: О.Сафаров, Д.Ўраева. – Бухоро, 2004. – Б.118.

<sup>10</sup> Навоий А. Хамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. XX жилдлик. XV жилд. – Т.: Фан, 1999. – Б.76.

<sup>11</sup> Навоий А. Хамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. XX жилдлик. XV жилд. – Т.: Фан, 1999. – Б.77.

<sup>12</sup> Навоий А. Хамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. XX жилдлик. XV жилд. – Т.: Фан, 1999. – Б.78.

<sup>13</sup> Навоий А. Хамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. XX жилдлик. XV жилд. – Т.: Фан, 1999. – Б.79.

“Xamsat ul-mutahayyirin” asari oxirida keltirilgan marsiyalarda *ajal, arvoḥ, tobut, motamkada, motamzada, jannati firdavs, gir'yakunon, na'razanon, navhatiroz* singari motam marosimiga oid tushunchalardan foydalanilgan. Masalan, quyidagi marsiya-g'azal bevosita marhumni tobutga solib, qabristonga ko'tarib olib borish jarayonida tobutkashlarning holati va vaziyatini real aks ettirayotgani bilan ahamiyatlidir. Chunki hozirgacha xalqimiz orasida vafot etgan kishi tobutini yelkama-elka ko'tarib borib, so'nggi manziliga qo'yib kelish odati saqlangan. Zero, shu hayotiy real manzarani Navoiy quyidagicha ifodalab ko'rsatgan:

Z-in azo dar hama olam na gado monda, na shoh,  
 Ki kashidand ba so'gi tu du sad nolavu oh.  
 Abrson gir'yakunon, na'razanon soya fikand,  
 Bar sari na'shi tu xurshedi karam – zilli iloh.  
 Gar muyassar shudayash na'sh kashidi bar do'sh  
 Chun mani so'xtadil jonibi madfan hamroh.  
 Shahriyaroni jahon chok zada joma ba tan,  
 Peshi tobuti tu po'yanda ba ahvoli taboh.  
 Sarbalandoni jahon dar tahi na'shat shuda past,  
 Hama gir'yonu kashon bori tu bo pushti dutoh.  
 Shuda har poyai na'shi tu ba do'shi yak qutb,  
 Lek har chor shuda nudbagaru vovayloh.  
 Olamero ba so'i olami digar burdan  
 Natavon juz ba chunin barkashoni ogoh.  
 Chazai akbare aftod, ki bo in hama chashm,  
 Charhi gardun notavonist bad-on so'i nigoh.  
 Garchi shomi tu shud az nur chu mahtob safed,  
 Hech kas lek nadidast chunon ro'zi siyoh.  
 Ba namozat, ki hazoron zi bashar payvastand,  
 Sad hazoron zi maloik ba havo saf bastand.<sup>14</sup>

G'azalning ilk misrasi o'limning barhaqligini, shohu gadoga birligini, barchaning o'tkinchiligini ta'kidlash bilan boshlangan. Aslida bunday haqli e'tirofni xalq yig'i-yo'qlov qo'shiqlarida ham kuzatish mumkin:

Na shoh qoldi, na gado, alla,  
 Allalab ko'tardilar, alla.  
 Olib ko'chadan o'tdilar, alla.<sup>15</sup>

G'azalning ikkinchi misrasida dunyo xalqlari motam marosimiga xos: o'lim yuz berganda ko'pchilik bo'lib baqirib-chaqirib yig'lash odatiga ishora qilingan. Ma'lumotlarga qaraganda, “o'limning kelib chiqishiga qadimgi insonlarning o'lim olib keluvchi mifik ko'rinishdagi yomon ruhlarni qo'rqitib, ulardan olib qochib ketilayotgan inson ruhini qutqarib olib qolish niyati asos bo'lgan”.<sup>16</sup> Jumladan, qadimgi saxalinliklar va aynlar ham o'lim yuz berganda qilich bilan o'limni haydashga, uni chalg'itib, marhumni va o'zlarini himoya qilishga uringanliklari aytiladi.<sup>17</sup> Xullas, shunday tasavvur-tushunchalar asosida qadimdan hozirgacha o'likka yig'lash odati bo'lganligi Navoiyning “Ki kashidand ba so'gi tu du sad nolavu oh” (“Ular sening motamingda ikki yuzlab nolavu oh chekdilar”) satridan ham ma'lum bo'ladi.

Shoir marhumning tobuti oldida va ostida hatto jahon mag'rurlari ham past bo'lib, qattiq qayg'u bilan qadam tashlab, hammalari yig'lab, qaddi bukchayganicha uni eltib borayotganini tasvirlar ekan, odatimizga ko'ra tobutkashlar boshlarini yerga egganicha, vazmin qadamlar ila, g'amgin kayfiyatda, tobutning to'rt poyasini to'rt kishilashib yelkaga olib, tez-tez almashinib, baland ko'tarib borishlari manzarasini real yarata olgan.

<sup>14</sup> Навоий А. Хамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. XX жилдлик. XV жилд. – Т.: Фан, 1999. – Б.82.

<sup>15</sup> Бўзлардан учган ғазал-ай. Ўзбек халқ йиғи ва йўқловлари. Тўплаб, нашрга тайёрловчилар: О.Сафаров, Д.Ўраева. – Бухоро, 2004. – Б.91.

<sup>16</sup> Ўраева Д.С. Ўзбек мотам маросими генезиси, жанрий таркиби ва бадиияти: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 2005. – Б.93.

<sup>17</sup> Спевачковский А.Д. Души, оборотни, демоны и божества айнов. – М.: Наука, 1988. – С.146.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

G'azalda tobuting har poyasi bir ulug' zot yelkasida ekani, bu ulug' zotlar to'rt kishi ekani, to'rtovlari bir bo'lib, dod solib yig'lab borayotgani ta'kidi orqali shoir xalq tilida "to'rt oyoqli cho'bin ot" deb yuritiluvchi tobut ko'rinishini tasavvurda jonlantirishni ko'zda tutgan. Zero, etnograf va folklorshunos tadqiqotchilar fikricha, qadimgi turkiylarning o'lgan kishi jasadini otga mindirib, dafn etiladigan joygacha olib borish odati mayitni tobutga solib, qabristonga olib borish odati shaklida o'zgarib, hozirgacha yashab kelmoqda.<sup>18</sup>

Umuman aytganda, "motam marosimi ibtidoiy insonlarning o'lim hodisasi, o'limdan so'ng qayta tirilish, narigi dunyo, o'liklar mulki, ruhlar olami, abadiy hayot haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalari asosida shakllangan bo'lib, bora-bora yaxlit bir tizimni hosil qilgan".<sup>19</sup> Shu kabi an'analar asosida Navoiy ham yaratgan g'azal marsiyasida "Olamero ba so'i olami digar burdan" deya, insonning bir olamdan boshqa bir olamga olib borilishi haqida so'zlaydi.

G'azalda keltirilgan "qora kun" tushunchasi ikki xil ma'noda talqin topgan: marhum uchun ulug' va qutlug' kun<sup>20</sup> sifatida, chunki u bu kun Yaratgan huzuriga o'tlanmoqda. Shuning uchun shoir marhumga murojaat qilib, "tuning nur bilan oydingek oppoq", "hech kim bunday qora kunni ko'rgan emas edi", – deydi. Lekin tiriklar yaqinidan, ulug' bir zotdan ayrilib qolgani ular uchun "qora kun", ya'ni g'amu qayg'uga to'la kun bo'lgani bildirilmoqda.

G'azalda keltirilgan "namoz" so'zi marhumlar uchun tiriklar tomonidan jamoa bo'lib o'qiladigan "janoza namozi"ni anglatadi. Bunday namoz turi marhumning istig'ori uchun o'qiladigan farzi kifoya namozi hisoblanadi. Uni o'qishda faqat erkaklar ishtirok etadi. Namozga yig'ilganlar tik turgan holatda marhumning bu dunyoda bilib-bilmay qilgan gunohlarini kechirishni Oллоhdan so'raydilar. Shuni nazarda tutgan shoir Jomiyning janoza namozida minglab kishilar to'plangan va yuz minglab malaklar havoda saf tortgani haqida gapirgan.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiyning g'azal-marsiyalari mazmunan xalq yig'i-yo'qlov qo'shiqlari mazmuniga yaqinligi, ularga xos g'amgin, ayrilish ohangida yaratilgani, o'zida motam marosimiga xos ko'plab urf-odatlarini badiiy motivlashtirib kelgani bilan e'tiborni tortadi. Shu jihatdan ular Navoiy ijodiga xos etnografik folklorizmlarni o'rganishda muhim manba vazifasini o'tay oladi.

Alisher Navoiy "navha" so'zini yig'i-yo'qlovlar ma'nosida ishlatgani seziladi. Ma'lumki, Alisher Navoiyning "Xamsa"si tarkibidagi uchinchi dostoni "Layli va Majnun"ning 33-faslida bosh qahramon Majnun (Qays)ning ota-onasi vafoti munosabati bilan aytgan navhalari keltirilgan. Bunda Navoiy "navhaangez", "navha og'oz", "navhapardoz", "navhayu azoni", "navhavu ashk nolishi", "navhai dard", "navhai firoqi" kabi qator so'z va izofali birikmalarni qo'llash orqali navhalarni farqlab ko'rsatgan. Darhaqiqat, dard navhasi, firoq navhasi, motam navhasi bir-biridan farq qiladi.

Dostonda Majnun o'z firoqidan halok bo'lgan ota-onasining o'limidan tushi vositasida darak topadi. Shundan so'ng u shamoldek yelib, ota-onasining mozorini topib, qabr boshida navhago'ylik qiladi. Uning navhasini Navoiy "surudi purdard", ya'ni "dardga to'lib toshgan qo'shiq" deb ataydi.<sup>21</sup>

Majnun navhalarida yetimlik dardining chuqur qayg'u-alami mung bilan kuylanadi. Unda aza, qora kiyish, go'riston, o'lmoq singari motam marosimiga aloqador so'zlardan foydalanib, tanosib san'ati vujudga keltirilgan.

Majnunning otasi mozoriga bosh urib, qattiq fig'on chekib, nuhufta rozini aytishi dostonda quyidagicha mubolag'ali tasvir qilingan:

Ko'ksin yoqa o'rnig'a qilib chok.  
Urdu yuragiga tig'i bebok.  
Yerni tengiz etti ashkidin sayl,  
Boling'din o'lub quburi bir xayl...  
Ko'p abri bahordek o'kurdi,  
Kaf sayl kibi yuziga urdi.

<sup>18</sup> Дьяконова В.П. Погребальный обряд тувинцев как историко-этнографический источник. – Л.: Наука, 1975. – С.55; Ўраева Д.С. Ўзбек мотам маросими генезиси, жанрий таркиби ва бадиияти: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 2005. – Б.89.

<sup>19</sup> Ўраева Д.С. Ўзбек мотам маросими генезиси, жанрий таркиби ва бадиияти: Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 2005. – Б.102.

<sup>20</sup> Ҳаққул И. Яна қора ранг талқини ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001. – №3. – Б.17-24.

<sup>21</sup> Навоий А. Лайли ва Мажнун. МАТ. XX жилдлик. IX жилд. – Т.: Фан, 1992. – Б.259.

Qildi anosig'a mo'ya og'oz,  
Yuz dard ila bo'ldi navha pardoz.<sup>22</sup>

Shoir Majnunning ota-onasi firoqida to'kkan ko'z yoshidan dengiz, o'kirishidan momaqaldiroq hosil bo'lganini aytmoqda. Majnun navhasining dard bilan pardozlanganini alohida ta'kidlamog'ida.

Shunisi e'tiborliki, bunda Majnun onasi haqida navha aytar ekan, xuddi xalq qo'shiqlaridagi kabi onasini bevosita Ka'bage tenglashtiradi:

Ki ey jonima qibla, qiblama nur,  
Mushkung bo'lub emgakimda kofur...  
Sen Ka'ba mangavu men tilab dayr,  
Tavfing sori hech qilmayin sayr.<sup>23</sup>

Bu bilan onaning Ka'ba singari muqaddasligi, ulug'ligini ifoda etadi. Uni qibla nuriga tenglashtirish orqali hayotni quyoshdek yoritib turishiga ishora qiladi. Biroq onaning ham vaqti soati yetib, umr nuri so'nishi haqiqatdir.

D.O'rayeva yozganidek, ona vafoti munosabati bilan aytiladigan xalq yig'i-yo'qlovlari talaygina. Ularda ona nomini muqaddas qadamjolar nomi bilan teng qo'yish orqali uning mo'tabar zot ekanligini ta'kidlanishi alohida e'tiborni tortadi. Masalan:

Volidam, Makkam, Madinam  
Mehribonim, jonim onam.  
Oq sutingga rozi bo'l,  
Azizam – Ka'bam onam.<sup>24</sup>

Majnun navhalarida xuddi an'anaviy xalq yig'i-yo'qlovlaridagi kabi marhumning sifatlarini yoritishga alohida o'rin ajratilgan. Jumladan, unda Majnun tilidan onaga "ko'zum charog'i", "ko'nglum xushi", "xotirim farog'i" kabi sifatlashlar qo'llangan.

Navoiy Majnunning onasi qabri tepasida aytgan aytimini "surudi benavoliq yo navhaki azoliq" deb atab, uning motamzadaliq, bekasu faqirlik, hajr ichra yetimu asir ekanini ta'kidlab, shunday yozgan:

Topib chu vuquf bu azog'a,  
Ashjor alam chekib havog'a.  
Sunbul qilibon qaro uzorin,  
Ochib qaro zulfi mushkborin.  
So'gig'a oqar su zor yig'lab,  
Un tortibu so'gvor yig'lab.<sup>25</sup>

D.O'rayeva Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida Majnun navhalari badiiyati xususida to'xtalar ekan,<sup>26</sup> azador navhachi osmonga (havoga) qarab nola chekishi, ayol bo'lsa, sochlarini yoyib, oldiga tashlashi, yum-yum ko'z yosh to'kib, un tortib, ya'ni ovoz solib, kuyingancha yig'i qilishi, shundan kelib chiqib, fors-tojiklar orasida yig'ichi-navhagar "so'gvor" ham deyilishini aytib, shu jihatdan yuqoridagi misralar aza navhasini aytuvchining holatini real tasvirlashini ta'kidlaydi. Yana uning fikricha, motamda navha qiluvchilar o'z so'zlarini sabza (qo'shiq) qilib aytishga urinadilar. Lekin bunday improvizatsiya jarayonida tilga kelgani aytilaveradiki, hatto yuqoridagi misrada ta'kidlab ko'rsatilayotganidek, marhum afsonaviylashtiriladi, sifatleri mubolag'alashtiriladi. Shuning uchun Navoiy ham deydi:

Sabza qilib o'zni sarbasar til,  
Aytib g'amidin fasona har til.

Navoiy navha kuylovchining navhasiga qarab, uning dardini bilib olish mumkinligini ham bildiradi:

Layli tanibon aning navosin,  
Navha aro nazmi jonfizosin.

<sup>22</sup>Navoiy A. Layli va Majnun. MAT. XX jildlik. IX jild. – T.: Fan, 1992. – B. 265.

<sup>23</sup>Navoiy A. Layli va Majnun. MAT. XX jildlik. IX jild. – T.: Fan, 1992. – B. 266.

<sup>24</sup> B'zlaridan uchgan fozal-ay. 'zbek xalq i'igi va i'uklovlari. T'plab, nashrga tay'orlovchilar: O.Safarov, D.'uraeva. – Buxoro, 2004. – B.34.

<sup>25</sup> Navoiy A. Layli va Majnun. MAT. XX jildlik. IX jild. – T.: Fan, 1992. – B.87.

<sup>26</sup> 'uraeva D. Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida Majnun navhalari badiiyati // "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzuida xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – T., 2019. – B.413-414.



## ADABIYOTSHUNOSLIK

Majnung'a yetib aning nasimi,  
Qolmay ichida firoq biymi.

**XULOSA.** Alisher Navoiy qaysi bir an'anaviy mavzu va janrda ijod qilmasin, real hayot, ijtimoiy voqelik bilan bog'liq holda ish ko'rdi. Bu esa uning marsiya janri tabiatini boyitishdagi xizmatlarida ham namoyondir. Aytish mumkinki, ulug' shoir ushbu janrning poetik strukturasi ijtimoiy-falsafiy, axloqiy g'oyalar, yuksak ma'nolar bilan yanada boyitib, umrning o'tkinchiligini, o'limning barhaqligiyu shohu gadoga, kattayu kichikka barobarligini yana bir karra ta'kidlab o'tdi. Xususan, yorug' olamni tark etgan yaqin insonlarining ma'naviy qiyofasini, xalq oldidagi xizmatlariyu yuksak tafakkur ila yaratgan asarlari qimmatini realistik bo'yoqlarda bera oldi. Ular bilan bog'liq taassurotlarini, hayotiy-psixologik lavhalar tasviri va tahlilini badiiy uyg'unlikda ifodalab, janr imkoniyatlarini to'la namoyon etishga erishdi.

## ADABIYOTLAR

1. Bo'zlardan uchgan g'azal-ay. O'zbek xalq yig'i va yo'qlovlari. To'plab, nashrga tayyorlovchilar: O.Safarov, D.O'rayeva. – Buxoro, 2004. (A gazelle from weeping. Uzbek folk songs and songs. Collected and prepared for publication: O.Safarov, D.Oraeva. - Bukhara, 2004).
2. Navoiy Alisher. Xamsat ul-mutahayyirin. / Mukammal asarlar to'plami. XX tomlik. XY jild – T.: Fan, 1999. (Navoi Alisher. Khamsat ul-mutahayirin. / Collection of perfect works. XX roof. Volume XY – T.: Science, 1999).
3. Navoiy A. Layli va Majnun. MAT. XX jildlik. IX jild. – T.: Fan, 1992. (Navoi A. Laila and Majnun. MAT. Volume XX. Volume IX. - T.: Science, 1992).
4. O'rayeva D.S. O'zbek motam marosimi genezisi, janriy tarkibi va badiiyati: Filol. fanl. dokt... diss. – T., 2005. (Oraeva D.S. Genesis of the Uzbek mourning ceremony, genre structure and art: Philology. science Ph.D... diss. - T., 2005).